O‘zbekiston yosh fiziklari Respublika anjumani

2018-yil 4-5-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida “Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari” mavzusida O‘zbekiston yosh fiziklari V-Respublika anjumani bo‘lib o‘tdi. Uni O‘zR FA prezidenti, akademik B.S. Yuldashev o‘z kirish so‘zi bilan ochib berdi. Anjumanda O‘zR FA Yadro fizikasi instituti xodimlari, respublikamizning turli hududlaridan kelgan yosh tadqiqotchilar, shuningdek, Radiopreparat DK, Ilg‘or texnologiyalar markazi vakillari ishtirok etdi. Anjuman ishida yadro fizikasi va yadro energitikasi, radiatsiyaviy fizika va nanomateriallar fizikasi, yadro fizikasi usullarini fan va texnologiyalarning tegishli sohalarida qo‘llash kabi masalalar muhokama qilindi.